

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MEVA VA SABZAVOT BILAN BOG‘LIQ  
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR

Jakbarova Sevaraxon Mamurjanovna

Oriental Universiteti o‘qituvchisi

e-mail: [jakbarova1988@mail.ru](mailto:jakbarova1988@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida meva va sabzavot nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar ko‘rib chiqilgan. Frazeologik birliklarning lingvistik va madaniy jihatlari, ularning tarjimaga ta‘siri, shuningdek, tarjima jarayonida ekvivalent topishdagi qiyinchiliklar tahlil qilingan. Maqolada madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda tarjimaning samarali usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologik birliklar, madaniy tafovut, tarjima qiyinchiliklari, meva va sabzavot nomlari, lingvistik ekvivalent.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие в процессе перевода фразеологических единиц, содержащих названия фруктов и овощей на английском и узбекском языках. Проанализированы лингвистические и культурные особенности фразеологических единиц, их влияние на перевод, а также трудности, связанные с нахождением эквивалентов в процессе перевода. В статье рассматриваются эффективные методы перевода с учетом культурных различий.

**Ключевые слова:** фразеологические единицы, культурные различия, трудности перевода, названия фруктов и овощей, лингвистический эквивалент.

**Annotation.** This article examines the problems that arise in the process of translation of phraseological units in English and Uzbek languages with the names of fruits and vegetables. Linguistic and cultural aspects of phraseological units, their impact on translation, as well as difficulties in finding equivalents in the translation process are analyzed. The article discusses effective translation methods that take cultural differences into account.

**Key words.** phraseological units, cultural difference, translation difficulties, names of fruits and vegetables, linguistic equivalent

**Kirish.** Frazeologiya XX asrning ikkinchi yarmidan tilshunoslikning mustqal bo‘limi sifatida shakllangan. Iboralarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda juda ham ko‘plab muammolarga uchraymiz. Frazeologik birliklar har qanday tilning madaniy boyligi va o‘ziga xosligi hisoblanadi. Ular xalqning urf-odatlarini, turmush tarzi va dunyoqarashini aks ettiradi. Meva va sabzavot nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklar esa nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Frazeologiya tarkibida o‘rganilayotgan maqol, matal, ibora hikmatli so‘zlar alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzulardir. Ingliz va o‘zbek tillarida bunday birliklar ko‘plab misollarda uchraydi va ularni tarjima qilishda qator muammolar yuzaga keladi.



Date: 25<sup>th</sup> April-2025



**Tadqiqot metodologiyasi.** Frazeologik birliklarning tarjimasini o'rganish bo'yicha turli ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, tarjimonlar ko'pincha bunday iboralarni oddiy so'zma-so'z tarjima qilishga urinadilar, bu esa ma'noning buzilishiga olib keladi.<sup>29</sup> O'zbek olimi J. Jalolovning ta'kidlashicha, frazeologik birliklarning tarjimasida ularning lingvokulturologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.<sup>30</sup> Ingliz tilida mashhur bo'lgan "as cool as a cucumber" iborasining ma'nosini faqatgina so'zma-so'z tarjima qilish noto'g'ri bo'ladi. Shu kabi o'zbek tilidagi "piyoz ko'ngil" iborasini tarjima qilishda ham uning emotsional va konnotativ ma'nosini saqlash muhimdir. Maqolada qiyosiy-lingvistik tahlil va lingvokulturologik usullar qo'llanildi. Ingliz va o'zbek tillaridagi meva va sabzavot nomlari ishtirokidagi frazeologik birliklar bir-biriga solishtirildi va ularning tarjima muammolari ko'rib chiqildi.

**Tahlil va natijalar.** Meva va sabzavot nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarni bir til dan boshqa tilga tarjima qilishda turli madaniy, lingvistik va semantik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Quyida bunday muammolarni tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida duch keladigan muammolar:

1. Madaniy tafovutlar (Cultural Differences): Meva va sabzavot nomlari ko'pincha tillar o'rtasida madaniy tafovutlarni aks ettiradi. Bu tafovutlar, nafaqat meva yoki sabzavotning o'ziga xos xususiyatlari, balki ularning xalqaro va lokal madaniyatdagi o'rni, simbolizmi va ramziy ma'nolariga ham ta'sir qiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi ba'zi meva va sabzavot nomlari ramziy ma'nolarida sezilarli farqlarni ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek tillarida meva va sabzavot nomlarining ramziy ma'nolari bir-biridan farq qiladi. Ingliz tilida "apple" (olma) meva sifatida nafaqat kundalik ovqatlanish madaniyatining ajralmas qismi, balki ko'plab iboralarda ham keng qo'llaniladi: "An apple a day keeps the doctor away". Bu ibora ingliz tilida sog'lom turmush tarziga bo'lgan e'tiborni ifodalaydi. O'zbek tilida esa olma oddiygina oziq-ovqat emas, balki mehmondo'stlik ramzi hisoblanadi. "The apple of one's eye" → "Ko'z qorachig'i". O'zbekcha "Qovun tushirmoq" iborasi ingliz tilida ekvivalentsiz bo'lib, "To make a blunder" kabi tarjima qilinadi. Bundan tashqari o'zbek tilida sabzavot nomlari ko'pincha eng oddiy va kundalik hayotga oid tushunchalar sifatida ishlatiladi. Ingliz tilida esa sabzavotlar ko'proq ratsionda muhim o'rinni egallaydi va ba'zida frazeologik birliklarda ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi "couch potato" iborasi odamni faqat televizor qarshisida o'tirib, harakatlanmaslikda tanqid qiladi, bu esa o'zbek tilida ekvivalentini topmaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi meva va sabzavot nomlarining ramziy ma'nolari ularning madaniy asoslariga bog'liq ravishda farq qiladi. Tarjima qilishda bu farqlarni hisobga olish muhimdir, chunki biror iborani bevosita tarjima qilish uning asl ma'nosini yo'qotishi mumkin. Shuning uchun, madaniy tafovutlarni e'tiborga olish, tarjimonning yuksak malakasini va madaniy bilingini talab qiladi.

<sup>29</sup> Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.

<sup>30</sup> Jalolov, J. (2012). Tillararo kommunikatsiya va lingvokulturologiya. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

2. Lingvistik ekvivalentning yo‘qligi (Lack of Linguistic Equivalents): Lingvistik ekvivalentning yo‘qligi tilshunoslikda juda muhim mavzudir, chunki har bir tilning o‘ziga xos tuzilishi, madaniyati va tarixiy rivojlanishi mavjud. Tilshunoslar, asosan, tarjima jarayonida lingvistik ekvivalentning yo‘qligi muammosini ikki asosiy omilga: madaniy tafovutlar va tilning struktural xususiyatlari bilan bog‘lashadi.

L. V. Shcherba, sovet lingvisti va tarjima nazariyasining asoschilaridan biri, lingvistik ekvivalentning yo‘qligini madaniyat va til strukturasi bilan izohlaydi. U tarjima jarayonida tilshunosning madaniyatini, til tuzilishini va kontekstni hisobga olishi kerakligini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, ba’zi iboralar tilning o‘ziga xosligi va madaniy xususiyatlari tufayli boshqa tilda to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmaydi.<sup>31</sup> Bundan tashqari, A.V. Fedorov (1965) o‘zining “Tarjima nazariyasi” asarida til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib, ba’zi iboralar yoki frazeologik birliklarning faqat bitta tilga xos bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan. U “lingvistik ekvivalentning yo‘qligi” fenomenini shunday izohlagan: ba’zi iboralar til va madaniyat o‘rtasidagi chuqur farqlar tufayli bir tildan boshqa tilga bevosita tarjima qilinmaydi, va ularni boshqa usullar bilan ifodalash zarur bo‘ladi. Ba’zi hollarda, meva va sabzavot nomlarining semantik ma’nolari har ikki tilda to‘liq mos kelmasligi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “banana” iborasi, odatda, odamni masxara qilish yoki aqldan ozish kabi konnotatsiyalarni bildiradi.

O‘zbek tilida esa “banan” bunday semantik ma’nolarni anglatmaydi, bu faqat ozuqa sifatida ko‘riladi. Shu sababli, lingvistik ekvivalentning yo‘qligi ko‘pincha tilning semantik va frazeologik tuzilishidagi farqlarga bog‘liqdir. Bu farqlar, madaniy tafovutlar bilan birga, tarjimonni har bir iborani kontekstga mos ravishda tarjima qilishga majbur qiladi.

Lingvistik ekvivalentning yo‘qligi til va madaniyat o‘rtasidagi farqlardan kelib chiqadi. Tarjimada bunday holatlarni hisobga olish, tarjimonning chuqur madaniy bilimini va tilshunoslik nazariyasiga bo‘lgan e’tiborini talab qiladi. Madaniy tafovutlar, til strukturasi xususiyatlari va semantik farqlar lingvistik ekvivalentni topishda katta rol o‘ynaydi. Tarjimon faqat so‘zma-so‘z tarjima qilish bilan cheklanmay, kontekstni, madaniyatni va tilning frazeologik tizimini inobatga olishi zarur.

Ingliz va o‘zbek tillari grammatik va frazeologik jihatdan o‘zaro farq qiladi. Bu farqlar, ko‘pincha, lingvistik ekvivalentni topishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, ingliz tilidagi "apple of one's eye" (ko‘z qorachig‘i) iborasi o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilinganda, bevosita ekvivalent mavjud emas, chunki o‘zbek tilida bu ibora "ko‘z qorachig‘i" shaklida ishlatiladi. Ikkala ibora ham ma’noni bir xil tarzda anglatadi, lekin ularning tuzilishi va qo‘llanishi har bir tilning o‘ziga xosligini aks ettiradi. Ba’zi frazeologik birliklar boshqa tilga tarjima qilinadigan ekvivalentga ega emas. Masalan: “As cool as a cucumber” iborasining o‘zbek tilida aniq ekvivalenti yo‘q.

3. So‘zma-so‘z tarjimaning ma’no buzilishiga olib kelishi (Literal Translation Issues). So‘zma-so‘z tarjima ba’zida original matndagi so‘zning yoki iboraning semantik

<sup>31</sup> Shcherba L.V. (1968). On the Meaning of Translation.



Date: 25<sup>th</sup> April-2025

ma'nosini to'g'ri yetkaza olmaydi. Har bir til o'ziga xos semantik tizimga ega bo'lib, ba'zi so'zlar yoki iboralar boshqa tilda to'liq ma'no anglatmasligi mumkin. Frazologik birliklarni so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha mantiqsiz yoki kulgili ma'no paydo qiladi. "Not be worth a fig" – "bir pulga qimmat"; "A carrot and stick policy" – "janjalli siyosat". XX asrning mashhur tilshunosi Roman Jakobson (1959) esa, tarjima jarayonida lingvistik ekvivalentlarning yo'qligini va madaniyatlararo tafovutlarni nazarda tutgan holda, tarjimonning madaniy bilimi va kontekstual tushuncha muhimligini ta'kidlagan.<sup>32</sup>

4. Konnotatsiya va emotsional rang-baranglikni saqlash (Preserving Connotation and Emotional Nuances): Ushbu tarjima tilshunoslikda ayniqsa tarjima jarayonida juda muhim tushunchalardir. Tarjimada faqat so'zning asosiy ma'nosini emas, balki uning konnotatsiyasini, ya'ni qo'shimcha ma'no yoki his-tuyg'ularini ham hisobga olish zarur. Konnotatsiya, biror so'zning asosiy ma'nosidan tashqari, o'zida ijtimoiy, madaniy, yoki hissiy ma'nolarni saqlaydi. Shunday qilib, tarjima jarayonida konnotatsiya va emotsional rang-baranglikni saqlash, matnning to'liq ma'nosini va ahamiyatini etkazishda muhim ahamiyatga ega. Frazologik birliklar ko'pincha emotsional va obrazli ma'noga ega bo'ladi, bu esa tarjimada yo'qolishi mumkin. "To go bananas" (Inglizcha) Bu ibora odamning g'azablanishi, his-tuyg'ularini nazorat qila olmaydigan holatga kelishini anglatadi. "To go bananas" kishining haddan tashqari hayajonlanishi yoki g'azablanishini bildiradi. O'zbek tiliga "Aqlini yo'qotmoq" deb tarjima qilinadi. Bunday tarjimada ingliz tilidagi iboraning konnotatsiyasini saqlab qoladi, chunki u kishi o'zini nazorat qila olmay, g'azablanish holatiga kelishini anglatadi.

5. Tilning semantik xususiyatlari (Semantic Challenges) Tilning semantik xususiyatlari tilning ma'no tuzilmasini o'rganish, so'zlarning ma'nolarini aniqlash va tushinishda muhim ahamiyatga ega. Semantika tilshunoslikda so'zlarning va iboralarning o'zaro aloqalarini va ularning ma'no kattaligini, shuningdek, ularning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini tushunish imkonini beradi. Bu jarayon, ayniqsa tarjima faoliyatida, madaniy va lingvistik farqlarni hisobga olib, aniq va to'liq tarjimani amalga oshirish uchun zarur bo'ladi. Ba'zi mevalar yoki sabzavotlarning nomlari bir tilning o'zida ko'p ma'noli bo'lishi yoki boshqa arsani ifodalashi mumkin. Masalan: "Chili" ingliz tilida achchiq qalampirni anglatadi, lekin o'zbek tilida uni "qizil qalampir" deb aniqroq ko'rsatish lozim. "Pumpkin" so'zi ayrim tillarda turli o'lchamdagi qovoqlarni ifodalaydi, o'zbek tilida esa qovoq turlari alohida nomlanadi: masalan, "bodring qovoq" yoki "shirin qovoq".

**Xulosa.** Meva va sabzavot nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklarni tarjima qilishda turli lingvistik va madaniy muammolar yuzaga keladi. Madaniy tafovutlar, lingvistik ekvivalentlarning yo'qligi, semantik ma'nolar o'zgarishi va konnotatsiyalarni saqlashdagi qiyinchiliklar bu jarayonni murakkablashtiradi. Tarjimonlar bu muammolarni hal qilish uchun kreativ va chuqur bilimga ega bo'lishlari, tilning semantik va madaniy xususiyatlarini to'g'ri hisobga olishlari kerak. Bunda kontekstual tahlil, ekvivalentlikni saqlash, paraphraslash va madaniyatlararo o'xshashliklarni aniqlash kabi usullarni qo'llash muhimdir. Meva va sabzavot nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarni tarjima qilish

<sup>32</sup> Jakobson, R. (1959). "On Linguistic Aspects of Translation" in *On Translation*, ed. Reuben A. Brower, Harvard University Press.



Date: 25<sup>th</sup> April-2025

nafaqat lingvistik, balki madaniy yondashuvni ham talab qiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi bunday iboralarni to‘g‘ri tarjima qilish uchun frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va madaniy kontekstni hisobga olish zarur. Shu bilan birga, tarjima jarayonida so‘zma-so‘z tarjimadan qochib, iboraning mazmunini saqlash muhimdir. Izlanishlarimizdan xulosa qilib bir qancha taklif va tavsiyalar berdik, ushbu taklif va tavsiyalar ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni o‘rganish va tarjima qilish bo‘yicha ilmiy va amaliy jarayonlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

1. Frazeologik birliklarni kengroq tadqiq qilish: Ingliz va o‘zbek tillaridagi meva va sabzavot nomlari ishtirokidagi frazeologik birliklarni tizimli tarzda o‘rganish lozim. Ushbu iboralarni tarjima qilishda mavjud muammolarni hal etish uchun lingvistik va madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda maxsus qo‘llanmalar yaratish tavsiya etiladi.

2. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish: Frazeologik birliklarni tarjima qilishda madaniyatlararo kompetensiyaga ega bo‘lgan tarjimonlarni tayyorlash muhim. Tarjimonlar madaniy kontekstlarni yaxshi anglashlari uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil qilish lozim.

3. Tarjima sohasida texnologiyalardan foydalanish: Frazeologik birliklarning tarjimasini osonlashtirish uchun zamonaviy tarjima dasturlariga madaniy kontekstlarni kiritishni taklif etish lozim.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
2. Bekchanova, R. (2020). *Phraseology and Translation: Theoretical Approaches and Practical Applications*. Tashkent.
3. Jafarova, M. (2017). *Tarjimonlik va frazeologik birliklar*. Tashkent.
4. Jakbarova, Sevaraxon. "The role of intercultural communication and modern technologies in teaching English." *American Journal of Education and Learning* 5 (2024): 2996-5128.
5. Jakbarova, Sevaraxon. "Neuro-Linguistics: a New Paradigm of Contemporary Linguistics." *Miasto Przyszłości* 54 (2024): 1222-1225.
6. Jalolov, J. (2012). *Tillararo kommunikatsiya va lingvokulturologiya*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
7. Komissarov, V.N. (1990). *Theory of Translation*. Moscow: Vysshaya Shkola.
8. Shayxislamov, N. *Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari // Academic Research in Educational Sciences*. Volume 2, 2021 ISSN: 2181-1385. – B. 879-883.

